

## Buxoro viloyatida 2019 yil yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

Raqamlar:




**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 5020,2 mlrd. so'm**

**O'sish sur'ati 91,1%**

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 5020,2 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 91,1 % tashkil etdi. Moliyalashtirishning manbalari bo'yicha tahlil qilinganda, joriy davrda o'zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi chet el investiyalari va kreditlari – 2530,6 mlrd. so'm yoki 50,4 %, korxonalarining va aholining o'z hisobidan esa 1480,7 mlrd. so'm, yoki 29,5% jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning hisobiga to'g'ri keladi.

### Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar taqsimlanishi

2019 yil yanvar-iyun oylarida jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 804,4 mlrd. so'm, jami investitsiyalardagi ulushi 16,0 foiz, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan esa 4215,8 mlrd. so'm, jami investitsiyalardagi ulushi 84,0 foizni tashkil qildi.



■ markazlashgan ■ markazlashmagan


## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi

|                     | Jami investitsiyalar, mlrd. so'mda | Shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha:<br>(jamiga nisbatan, foizda) |                               |                              |  |                                   |                                     |  |
|---------------------|------------------------------------|--|-------------------------------|------------------------------|--|-----------------------------------|-------------------------------------|--|
|                     |                                    | Respublika byudjeti  | Davlat maqsadli jamg'armalari | Korxonalar va aholi mablag'i | Bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarzi mablag'lari | Xorijiy investitsiya va kreditlar | Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi | Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg'armasi |
| <b>Jami viloyat</b> | <b>5020,2</b>                      | <b>7,1</b>   | <b>0,8</b>                    | <b>29,5</b>                  | <b>11,5</b>  | <b>50,4</b>                       | <b>0,7</b>                          | <b>-</b>   |
| Buxoro sh           | 1532,9                             | 2,5  | -                             | 6,5                          | 2,8  | 17,9                              | 0,7                                 | -  |
| Kogon sh            | 184,5                              | 0,2  | -                             | 0,4                          | 0,1  | 2,9                               | -                                   | -  |
| Olot                | 717,9                              | 0,3  | 0,8                           | 2,1                          | 1,1  | 10,0                              | -                                   | -  |
| Buxoro              | 212,7                              | 0,6  | 0,0                           | 2,1                          | 0,6  | 0,9                               | -                                   | -  |
| Vobkent             | 114,3                              | 0,3  | 0,0                           | 1,1                          | 0,4  | 0,5                               | -                                   | -  |
| G'ijduvon           | 354,2                              | 0,6  | 0,0                           | 3,5                          | 2,5  | 0,5                               | -                                   | -  |
| Kogon               | 235,5                              | 0,1  | 0,0                           | 2,8                          | 0,5  | 1,3                               | -                                   | -  |
| Qorako'l            | 191,5                              | 0,6  | 0,0                           | 1,4                          | 0,5  | 1,4                               | -                                   | -  |
| Qorovulbozor        | 76,9                               | 0,2  | 0,0                           | 0,5                          | 0,3  | 0,5                               | -                                   | -  |
| Peshku              | 324,8                              | 0,3  | 0,0                           | 1,4                          | 0,7  | 4,0                               | -                                   | -  |
| Romitan             | 656,2                              | 0,5  | 0,0                           | 4,7                          | 0,3  | 7,7                               | -                                   | -  |
| Jondor              | 257,4                              | 0,4  | 0,0                           | 1,7                          | 1,4  | 1,7                               | -                                   | -  |
| Shofirkon           | 161,4                              | 0,5  | 0,0                           | 1,3                          | 0,3  | 1,1                               | -                                   | -  |

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari  
bo`yicha tarkibi**


|   | mlrd. so`m    | O`sinh sur`ati,<br>foizda | Jamiga nisbatan,<br>foizda |
|---|---------------|---------------------------|----------------------------|
| <b>Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan</b>                    | <b>5020,2</b> | <b>91,1</b>               | <b>100,0</b>               |
| <b><i>Markazlashgan investitsiyalar:</i></b>                          |               |                           |                            |
| Respublika byudjeti   | 804,4         | 420,4                     | 16,0                       |
| Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg`armasi                | -             | -                         | -                          |
| Suv ta`minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg`armasi | 38,5          | 776,8                     | 0,8                        |
| Tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi                                   | 33,7          | -                         | 0,7                        |
| Hukumat kafolati ostida chet el kreditlari                            | 373,6         | 535,0                     | 7,4                        |
| <b><i>Markazlashmagan investitsiyalar:</i></b>                        | <b>4215,8</b> | <b>80,8</b>               | <b>84,0</b>                |
| Korxonalar mablag`i   | 605,1         | 59,1                      | 12,1                       |
| Aholi mablag`i  | 875,6         | 118,1                     | 17,4                       |
| To`g`ridan-to`g`ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar        | 2157,1        | 77,9                      | 43,0                       |
| Bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarzi mablag`lari          | 578,0         | 82,4                      | 11,5                       |

## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmiga nisbatan moliyalashtirish manbalarining tarkibi, foizda




## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi, umumiy hajmdagi ulushi foizda

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi bo'yicha 2846,0 mlrd. so'm yoki 56,7 % qurilish-montaj ishlariga o'zlashtirilgan bo'lsa, mashina, uskunarlar va jihozlarni xarid qilishga 1891,8 mlrd. so'm yoki 37,7 % va boshqa xarajatlarga 282,4 mlrd. so'm yoki 5,6 % investitsiyalar o'zlashtirilgan.



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan ulushi, foizda**

- Tog-kon sanoati
- Uy-joy qurilish
- Tashish va saqlash
- Suv ta'minoti
- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish
- Qishloq, urmon va baliq xo'jaligi
- Qurilish
- Ta'lim
- Ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalarni tamirlash
- Boshqa faoliyat turlari



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida yuqoridagi diagrammada ko'rsatib o'tilganidek ishlab chiqarish sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 1009,1 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 20,1 foizi o'zlashtirilgan.


Shuningdek asosiy kapitalga investitsiyalarning eng ko'p investitsiya hajmlari tog'-kon sanoatiga 18,5%, uy-joyqurilishiga 16,4 %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligiga 16,1%, qurilishga 5,3 %, tashish va saqlashga 4,1 %, ta'limga 3,3 %, suv ta'minotiga 3,2 %, ulgurji va chakana savdoga 3,0 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishga 2,1%, boshqa faoliyat turlariga 7,9 % to'g'ri keladi.

Turar joy qurilishiga investitsiyalar aholini namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishi bo'yicha davlat dasturlarining amalga oshiririshi hamda aholi tomonidan yakka tartibdagi turar-joylar qurilishi hajmlari bilan bog'liq.

### **Xorijiy investitsiya va kreditlar**

2019 yil yanvar-iyun oylarida 2530,6 mlrd. so'm yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning umumiy xajmining 50,4% xorijiy investitsiya va kreditlari hisobidan amalga oshirilgan. O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 89,1% tashkil qilgan. Shundan xorijiy investitsiyalarning hajmi 1596,8 mlrd. so'mni, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi 63,1 foizni tashkil qildi. Xorijiy kreditlarning hajmi 933,8 mlrd. so'mni, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi 36,9 foizni tashkil qildi.


### **Xorijiy investitsiya va kreditlarning jamiga nisbatan ulushi, foizda**



## Xorijiy investitsiya va kreditlar (mlrd. so'mda)

|                     | Jami investitsiya va kreditlar | shu jumladan: |              | To`g`ridan-to`g`ri investitsiyalar | Boshqa investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar | shu jumladan: |                        |
|---------------------|--------------------------------|---------------|--------------|------------------------------------|--|---------------|------------------------|
|                     |                                | investitsiya  | kredit       |                                    |  | investitsiya  | Kafolatlanmagan kredit |
| <b>Jami viloyat</b> | <b>2530,6</b>                  | <b>1596,8</b> | <b>933,8</b> | <b>1585,3</b>                      | <b>571,7</b>                                     | <b>11,5</b>   | <b>560,2</b>           |
| Buxoro sh           | 899,0                          | 677,3         | 221,7        | 677,3                              | 61,9   | -             | 61,9                   |
| Kogon sh            | 145,1                          | 25,1          | 120,0        | 25,1                               | 0,0  | -             | -                      |
| Olot                | 502,5                          | 408,7         | 93,8         | 408,3                              | 0,4  | 0,4           | -                      |
| Buxoro              | 44,6                           | 44,5          | 0,0          | 34,4                               | 10,2   | 10,2          | -                      |
| Vobkent             | 27,6                           | 27,6          | 0,0          | 27,6                               | 0,0  | -             | -                      |
| G'ijduvon           | 27,3                           | 18,1          | 9,2          | 17,6                               | 9,7  | 0,5           | 9,2                    |
| Kogon               | 65,4                           | 65,4          | 0,0          | 65,3                               | 0,0  | -             | -                      |
| Qorako'l            | 70,7                           | 70,7          | 0,0          | 70,4                               | 0,3  | 0,3           | -                      |
| Qorovulbozor        | 25,9                           | 26,0          | 0,0          | 26,0                               | 0,0  | -             | -                      |
| Peshku              | 202,7                          | 92,2          | 110,6        | 92,2                               | 110,6  | -             | 110,6                  |
| Romitan             | 379,7                          | 14,5          | 365,1        | 14,5                               | 365,2  | 0,0           | 365,1                  |
| Jondor              | 84,6                           | 83,8          | 0,8          | 83,8                               | 0,9  | 0,0           | 0,8                    |
| Shofirkon           | 55,5                           | 42,9          | 12,6         | 42,8                               | 12,6   | 0,1           | 12,6                   |

## Iqtisodiy faoliyati turlari bo'yicha xorijiy investitsiyalar va kreditlarning umumiy hajmga nisbatan ulishi, foizda




- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Suv ta'minoti
- Boshqa faoliyat turlari
- Tog'-kon sanoati
- Ishlab chiqaradigan sanoat

Xorijiy investitsiyalar va kreditlarning asosiy hajmi tog'kon sanoatiga 780,2 mlrd. so'm, ishlab chiqarish sanoatiga 722,9 mlrd. so'm, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligiga 509,5 mlrd. so'm, suv ta'minotiga 154,6 mlrd. so'm, boshqa faoliyat turlariga 2853,0 mlrd. so'm to'g'ri keladi.



## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, tumanlar kesimida



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tumanlar kesimida tahlil qilinganda, Buxoro shahri eng yuqori o'rinni egalladi. Ushbu shaharda 1532,9 mlrd. so'mlik investitsiyalar o'zlashtirilgan, o'sish sur'ati 180,5 foizni tashkil qildi. Keyingi o'rinni Olot tumani egalladi, o'zlashtirilgan investitsiyalar 717,9 mlrd. so'm, o'sish sur'ati 24,5 foizni tashkil qildi. Romitan tumani 656,2 mlrd. so'mlik asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar bilan uchinchi o'rinni egalladi. Ushbu tumanda o'zlashtirilgan investitsiyalarning o'sish sur'ati 124,1 foizni tashkil qildi.

## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga, tumanlar kesimida

|                     | Aholi jon boshiga,<br>ming so'mda | O'sish sur'ati, foizda |
|---------------------|-----------------------------------|------------------------|
| <b>Jami viloyat</b> | <b>2 641,2</b>                    | <b>89,7</b>            |
| Buxoro sh           | 5 504,0                           | 179,2                  |
| Kogon sh            | 3 034,5                           | 576,3                  |
| Olot                | 7 340,2                           | 24,1                   |
| Buxoro              | 1 299,2                           | 128,0                  |
| Vobkent             | 831,2                             | 146,3                  |
| G'ijduvon           | 1 181,0                           | 134,0                  |
| Kogon               | 3 074,6                           | 129,6                  |
| Qorako'l            | 1 184,0                           | 208,9                  |
| Qorovulbozor        | 4 247,8                           | 134,3                  |
| Peshku              | 2 693,4                           | 266,0                  |
| Romitan             | 4 717,5                           | 121,9                  |
| Jondor              | 1 499,8                           | 165,1                  |
| Shofirkon           | 924,1                             | 226,4                  |

Tumanlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning aholi jon boshiga taqsimotida eng yuqori ko'rsatgichni Olot tumani egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga 7340,2 ming so'mga to'g'ri keldi, o'sish sur'ati 24,1 foizni tashkil qildi. Keyingi o'rinni Buxoro shahri egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga 5504,0 ming so'mga to'g'ri keldi, o'sish sur'ati 179,2 foizni tashkil qildi. Romitan tumani uchinchi o'rinni egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga 4717,5 ming so'mga to'g'ri keldi, o'sish sur'ati 121,9 foizni tashkil qildi.

## Ob'yektlarni ishga tushirish

|                     | Turar-joylar       |                         | Shu jumladan: qishloq joylarida |                         |
|---------------------|--------------------|-------------------------|---------------------------------|-------------------------|
|                     | Soni<br>(birlikda) | Maydoni<br>(ming kv.m.) | Soni<br>(birlikda)              | Maydoni<br>(ming kv.m.) |
| <b>Jami viloyat</b> | <b>3562</b>        | <b>838,8</b>            | <b>2553</b>                     | <b>581,7</b>            |
| Buxoro sh           | 385                | 101,4                   | -                               | -                       |
| Kogon sh            | 28                 | 5,9                     | -                               | -                       |
| Olot                | 376                | 97,8                    | 306                             | 61,4                    |
| Buxoro              | 303                | 79,2                    | 266                             | 72,4                    |
| Vobkent             | 123                | 37,7                    | 102                             | 30,9                    |
| G'ijduvon           | 830                | 161,2                   | 640                             | 126,4                   |
| Kogon               | 299                | 78,3                    | 299                             | 78,3                    |
| Qorako'l            | 339                | 41,1                    | 263                             | 32,6                    |
| Qorovulbozor        | 17                 | 3,3                     | 6                               | 1,2                     |
| Peshku              | 239                | 64,0                    | 190                             | 49,3                    |
| Romitan             | 227                | 66,0                    | 160                             | 50,3                    |
| Jondor              | 212                | 57,8                    | 161                             | 39,9                    |
| Shofirkon           | 184                | 45,1                    | 160                             | 39,0                    |

2019 yilning yanvar-iyun oylarida ijtimoiy sohada jami umumiy maydoni 838,8 ming kv.m. bo'lgan 3562 ta turar-joy ob'yekti yangi qurilib ishga tushirildi, ulardan umumiy maydoni 581,7 ming kv.m. bo'lgan 2553 ta turar joylar qishloq joylarida joylashgan.

|                     | <b>Suv tarmoqlari</b> |  | <b>Gaz tarmoqlari</b> |  |
|---------------------|-----------------------|--|-----------------------|--|
|                     | <b>(km.)</b>          |  | <b>(km.)</b>          |  |
|                     | <b>Uzunligi</b>       | <b>Shu jumladan:<br/>qishloq<br/>joylarida</b> | <b>Uzunligi</b>       | <b>Shu jumladan:<br/>qishloq<br/>joylarida</b> |
| <b>Jami viloyat</b> | <b>125,4</b>          | <b>125,4</b>                                   | <b>3,3</b>            | <b>3,3</b>                                     |
| Buxoro sh           | -                     | -  | -                     | -  |
| Kogon sh            | -                     | -  | -                     | -  |
| Olot                | 29,8                  | 29,8   | 2,1                   | 2,1  |
| Buxoro              | 3,7                   | 3,7  | 1,2                   | 1,2  |
| Vobkent             | -                     | -  | -                     | -  |
| G'ijduvon           | 11,8                  | 11,8   | -                     | -  |
| Kogon               | -                     | -  | -                     | -  |
| Qorako'l            | 8,1                   | 8,1  | -                     | -  |
| Qorovulbozor        | 19,0                  | 19,0   | -                     | -  |
| Peshku              | 32,0                  | 32,0   | -                     | -  |
| Romitan             | 0,2                   | 0,2  | -                     | -  |
| Jondor              | 14,0                  | 14,0   | -                     | -  |
| Shofirkon           | 6,8                   | 6,8  | -                     | -  |

Kommunal xo'jaligi sohasida 125,4 km. suv tarmoqlari (hammasi qishloq joylarida) hamda 3,3 km. bo'lgan gaz tarmoqlari (hammasi qishloq joylarida) ishga tushirildi.

Shuningdek, G'ijduvon tumanida 100 qatnovga mo'ljallangan ambulatoriya-poliklinika muassasasi foydalanishga topshirildi.

Romitan tumanida 120 o'ringa mo'ljallangan maktabgacha ta'lim muassasasi foydalanishga topshirildi.

**Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi**

*Nashr uchun mas'ul:*

**T. Adizov**

*Aloqa telefoni:*

**Tel: 223-81-99, 0(371)230-83-10**